

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish

Farg'onha Politexnika Instituti talabasi

Yusupova Nigora

Ilmiy rahbar: Uzganbayeva Dilnoza Toxtasinovna

Farg'onha politexnika instituti assistenti

Email: dilnoza.uzganbayeva@ferpi.uz

Annotatsiya. Bugungi kunda hech bir sohani axborot texnologiyalarisiz, kompyuterlarsiz, dasturlashtirilgan tizimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan, ta'lim soxasida raqamli texnologiyalarning o'rni alohida. Maqolada texnologik ta'lim yo'nali shida o'quv jarayonlarini tashkil etishdagi raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari va ahamiyati xususida fikrmulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. texnologik ta'lim, raqamli texnologiya, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy ta'lim.

Kirish

Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta'lim berish va bu orqali mamlakat barqaror rivojini ta'minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to`g`ri foydalanishni o`rganish yoshlar oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish mutlaqo dolzarb ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonida balki xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi[1].

Ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallah va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Asosiy qism

Keyingi 50 yil mobaynida axborot texnologiyalari rivojlanishi tufayli insoniyat xayotida katta o'zgarishdar yuz berdi. Endilikda ta'limni samarali tashkil etish uchun turli usul va vositalardan foydalanish boshlandi. Bu borada ko`plab ishlar amalga oshirilgan bo`lsada sohada xali ko`plab ishlarni amalga oshirish zarurligini hayotning o`zi kun tartibiga qo`ymoqda. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga to`sinqinlik qiluvchi holatlar bartaraf etilayotgan bo`lsada quyidagilar xamon sohadagi ishlarni amalga oshirish jarayoniga salbiy ta'sir etib kelmoqda:

- o`qituvchilarning zamonaviy axborot kommunikatsion vositalar xaqida kam ma'lumotga ega ekanligi;
- o'quvchilar yoki talabalarning ta'limni tashkil etishning zamonaviy vositalariga ega emasligi;
- ta'lim muassasalarining zamonaviy ta'lim berishga mo'ljallangan vositalar bilan ta'minlanish xolatining talab darajasida emasligi;
- zamonaviy ta'limni tashkil etishga yordam beradigan internet tarmog`ining yetib bormaganligi yoki tezlikning pastligi;

Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonali IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko`proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida

raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi[3].

Zamonaviy ta'lif jarayonida raqamli texnologiyalarda foydalanish bugungi kunda Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lif tizimida ham texnologik ta'lif asosiy yuksalish bo'g'ini hisoblanib, malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy ta'lif jarayoni o'quvchiga o'z ustida ko'proq ishslash imkonini beradi. Ya'ni o'quvchining o'zi mavzuni o'qiydi, o'zlashtiradi, mustaqil yangi ma'lumotlar topadi va uni taxlil qiladi. Zamonaviy ta'lif jarayonini tashkil etish katta kuch va salohiyat talab etadi. Buning uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash yaxshi samara beradi. Xususan, internet va e-minbar kabi texnologiyalar ta'limda:

- o'quvchilar bilim olishining faollashishiga, modellashtirishga;
- har qanday vositalardan kompleks foydalanishga;
- o'quvchilarning bilimlarni kompyuter orqali ob'yektiv baholanishiga imkon yaratadi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish auditorianing to`liq qamrab olish va fanga nisbatan muhabbat uyg`otishga sabab bo`ladi. Shu bilan birga ta'lif muassasasida internet tarmog'ining bo'lishi va sifatli ishlashi ta'lifni sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lif tizimi vositalari rolini multimediyalar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lif tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Wi-Fi zonali IT parklar ochilishi raqamli ta'lif tizimini yuksalishiga xizmat qiladi. Raqamli ta'lifning joriy etilishi o'qituvchilar orasida ishsizlikni keltirib chiqarishi extimolini yuzaga keltiradi, ammo buni ham bartaraf etish imkoni mavjud. Buning uchun o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishslash

qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish orqali bandligini ta'minlash mumkin. Bunda nafaqat mamlakatimizdagi balki chet eldag'i qator ta'lim oluvchilarni ham jarayonga jalb etish imkonini bo'ladi. Bu o'z navbatida mustaqil mablag` topish imkonini bersa ikkinchidan o'qituvchini o'z ustida ko`proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtida bunga telegram kanallari orqali amalga oshirilayotgan ta'limni misol sifatida keltirish mumkin. Bu kanallar orqali o'zlashtirish ko`p vaqt talab etadigan bilimlar qisqa muddatda yetkazib berilmoqda.

Bo'lajak ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash o'quv-tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash;
- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;
- texnologik ta'lim bo'yicha elektron o'quv adabiyotlarni mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida fanlar kesimida o'quvmetodik majmualar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan (Hemis, Moodle kabi) hamda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Xulosa

Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi va natijada, bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lif va tarbiyada innovatsion texnologiyalar.
3. Statistika.uz
4. Orishev J.B. Bo'lajak texnologik ta'lif o'qituvchilarini tayyorlashda axborot texnologiyalarining o'rni
5. Orishev J.B. Paqamli texnologiyalarning ta'lif jarayonini tashkil etishdagi o'rni // "Ta'lifda zamonaviy axborot texnologiyalari" mavzusida Xalqaro ilmiyamaliy anjuman materiallari.